



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETI VA IJTIMOIY MULOQOTINI YAXSHILASHDA GERMENEVTIK TAFAKKURDAN FOYDALANISH

Botirova Sevara Mamurovna

Namangan davlat pedagogika instituti, (PhD), dotsent

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti, 2-bosqich tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqola falsafaning hermenevtik sohadagi ilmiy tadqiqotlari orqali yoshlarning jamiyatdagi muloqoti va mafkuraviy immunitetini yaxshilashga oid ilmiy yondashuvlar o'rganilgani bilan dolzarbdir. Natijada esa, metodik asosda ijtimoiy muloqotda va mafkuraviy tahdidlar sharoitida yosh avlod tafakkurini ijobiy rivojlantirishga oid muhim yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: hermenevtik tafakkur, axborotlashgan jamiyat, mafkuraviy tahdidlar, yoshlar, muloqot madaniyati, fikr manipulyatsiyalari, mafkuraviy immunitet, ijtimoiy hayot.

ПРИМЕНЕНИЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА И СОЦИАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ МОЛОДЕЖИ

Ботирова Севара Мамуровна

Наманганский государственный педагогический институт, PhD, доцент

Каримов Исламжон Исроилжон угли

Наманганский государственный педагогический институт, базовый докторант 2 курса

Аннотация

Данная статья актуальна тем, что в ней изучаются научные подходы к повышению коммуникативного и идеологического иммунитета молодежи в обществе посредством научных исследований в герменевтической области философии. В результате на методологической основе описаны важные подходы к позитивному развитию мышления молодого поколения в социальной коммуникации и в условиях идеологических угроз.

Ключевые слова: герменевтическое мышление, информационное общество, идеологические угрозы, молодежь, культура коммуникации, манипулирование мышлением, идеологический иммунитет, социальная жизнь.

USE OF HERMENEUTIC THINKING IN IMPROVING IDEOLOGICAL IMMUNITY AND SOCIAL COMMUNICATION OF YOUTH

Botirova Sevara Mamurovna

Namangan State Pedagogical Institute, PhD, Associate Professor

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li

Namangan State Pedagogical Institute, 2nd-Year Doctoral Researcher

Abstract

This article is relevant in that it studies scientific approaches to improving the communication and ideological immunity of young people in society through scientific research in the hermeneutic field of philosophy. As a result, important approaches to the positive development of the thinking of the younger generation in social communication and in conditions of ideological threats are described on a methodological basis.

Keywords: hermeneutic thinking, information society, ideological threats, youth, communication culture, manipulation of thought, ideological immunity, social life.

Nemis faylasufi X.G. Gadamer inson fikrlash jarayonini o'rganar ekan, "tushunish — bu bilimning metodik shakli emas, balki mavjudlikning o'zini ochuvchi voqelik" [1. 704-bet.] deb talqin etgan. Virtual muloqotda yoshlar qanday germevntik tafakkur vositalari yordamida o'zaro aloqa o'rnatishlari va qanday prinsiplar asosida muloqotga kirishishlari masalasida gadamer muhim nazariy ilmiy farazlarni ilgari surgan edi. Aynan Gadamerning germevntik tadqiqotlari orqali zamonaviy global dunyoda yoshlarning mafkuraviy qarama-qarshiliklarini tizginga soladigan germevntik mexanizmlar taklif etilgan edi. Gadamer buni turli tafakkurlarning umumiy manzarasi hosil bo'ladigan "ufqlarning uyg'unlashuv" hodisasi sifatida izoxlaydi.

Integratsiyalashgan axborot muxiti dunyo yoshlarining turli dunyoqarashlari o'rtasida uzviylik, uyg'unlik hosil qiladi. Ana shunday vaziyatda to'plangan mafkuralar, axborotlar o'rtasida kurash ketadi va ushbu kurashda ularning bir-birlari o'rtasida germevntik idrok bilan qarama-qarshiliklar yumsahtiladi va madaniy aloqalar rivojlanadi. Madaniy assimilyatsiya va marginallashuvga ham bir jihatdan ushbu hodisalar sabab bo'lishi mumkin bo'lgani uchun ham yoshlarga qanday axborot makonida va ijtimoiy ong mansubligiga egaligidan kelib chiqib yondashuvlarni amalga oshirish lozim.

XXI asrda tobora xalqaro integratsiyalashuv ta'siri ortib borib, yoshlar tafakkurida uyg'un va o'xshash jihatlar yuzaga chiqa boshladi. Axborot olami kengligi natijasida ularni germevntik talqin qilgan holda, keraklilarini saralash muhimroq bo'lib qoldi. Bilimlarni egallashda miqdordan ko'ra sifat va keraklilik me'zonlari ahamiyatli bo'lib qoldi. Germevntik izlanishlar natijalarini tahlil qilgan faylasuf Q.Nazarov "Demak, germevntika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalarga asosiy diqqatini qaratadi." [2. 84-bet.] deb ta'kidlaydi. Binobarin, germevntika turli bilimlarni ongda tasniflash va saralash uchun yordam beruvchi idrok imkoniyati bo'lib qoldi.

Germevntik tafakkur quyidagi usullar yordamida ijtimoiy muloqot va mafkuraviy immunitetda ijobiy yo'naltiruvchi ta'sirga ega:

- tafakkurda talqin qilish orqali ijtimoiy munosabatlar va ularda ilgari surilga axborotlar va g'oyalarning mohiyatini aniqlashtirish;
- an'anaviy aksiologik dunyoqarash va yangilanayotgan ijtimoiy tafakkurning farqli xususiyatlarini anglashga yordam berish;
- ma'naviy bo'shliqni bartaraf etish uchun inson ongida tanqidiy-tahliliy yondashuv tafakkurini mustahkamlash;
- boshqalar bilan aloqa qilishda tinglash bilangina emas, samarali hamkorlik va muloqotga tayangan holda axborot va ijtimoiy muloqot jarayoniga xolisona yondashishga o'rgatish;
- xulosa chiqarishda xissiy tajriba va stereotiplarga asoslanib qolmasdan chuqur tahlil qobiliyatini shakllantirish.

Mafkuraviy raqobat sharoitida kuchli ijtimoiy dunyoqarashga ega jamiyatlar boshqalariga nisbatan dominantlik bilan ustunlik qilishi natijasida ma'lum bir jamiyatning ajratib turuvchi belgilari tobora yo'qolib borayotgani ham bugun har qachongidan ham ko'p uchrayotgan jarayonlardandir.

Yosh xususiyatlari asosida axborotning inson tafakkuriga qay tarzda ta'sir qilishini tadqiq etishga qaratilgan ijtimoiy so'rovnoma va ilmiy izlanishlar axborot oqimidagi ma'lumotlarga munosabatning o'zgarishi bilan vaqtinchalik statistik tahlil uchun xizmat qilmoqda. Axborot maydoni muvozanatsiz tarzda yangilanib borishi va ma'lumotlar bazasining oshishi, axborotlarga nisbatan talab va taklif muvozanatining tebranishlari yoshlarga axborotlashuvning ta'sirini o'rganishda individual yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi yoshlar ruxiy-ma'naviy rivojlanishda axborot asri natijasida avj olgan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, virtual olamga berilish natijasida shaxs sifatida marginallashuv, uyqusizlik, aqliy rivojlanishning sustlashishi va uning normal rivojlanishidagi buzilishlarga duch kelmoqdalar.

Zamonaviy reallikda yoshlarning yangilikni qabul qilishda va ularga moslashishda nisbatan erkinlikka ega bo'lgani ijtimoiy tafakkur shakllanishida xarakterli belgilardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyoqarashning har bir sohasida yoshlarning qarashlari tez o'zgarib, tobora xilm-xil bo'lib bormoqda. Axborot oqimi tezlashuvi qanchalik tezlashsa va erkinlashib borsa, yoshlarning ijtimoiy dunyoqarashi shunday tez shakllanishga ulguradi va jamiyat mafkurasini ma'yan darajada belgilaydi. An'anaviy tarzdagi rivojlanishida insoniyat turli siyosiy tuzumlarda va falsafiy qarashlar ta'sirida yashab kelgani uchun ham yoshlar dunyoqarashi jamiyatning mustahkam teologik, etik va boshqa faktorlari natijasida shakllangan qadriyatlar tizimida bo'lib kelgan.

Barcha usullari hermenevtika yoshlarning jamiyatning qolgan a'zolari bilan bog'liq munosabatlarni mustahkamlashi zarurligini anglatadi. S.Botirova tomonidan olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki: "Muloqot odobi ijtimoiy mavjudlikning shakli bo'lib, u jamiyat a'zolarining bir-biriga nisbatan ma'naviy mas'uliyatini, axloqiy meyorlarini va ijtimoiy muvozanatini ifoda etadi." [3. 56-bet.] Jahon miqyosida axborotlashuv jarayonlarida yoshlarning tobora ildamlashib, barcha sohalarida o'z o'rniga ega bo'lishga intilishi, jamiyat hayotidagi o'zni ortishi, ijtimoiy hayotdagi yoshlarning fikrlashi va tafakkuri bilan bog'liq jarayonlarga e'tibor qaratishni zaruratga aylantirmoqda.

Ayni paytda, xalqaro integratsiyalashuv natijasida axborot asri tahdidlarining ortib borishi bilan yoshlarda mediasavodxonlik, axborot madaniyati, virtual muloqotdagi xarakter va dunyoqarashi tezlik bilan o'zgarishlarga moyil bo'lmoqda. Samarali axborot tahdidlariga qarshi kurash vositalaridan biri sifatida mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qaroridagi chora tadbirlar rejasining 6-bandida "Yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish va ularda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar" [4] tashkil etish belgilangan edi.

Tashabbuskorlik faoliyatining qizg'in nuqtalaridan biri ham ommaviy axborot vositalari bo'lmoqda. Shuni e'tiborga olish lozimki yoshlar nuqtayi nazarini shakllantiruvchi axborot makoni faqatgina jurnalistika yoki internet platformalari, teleradio yangiliklaridagina iborat bo'libgina qolmasdan, davlatlarning ta'lim tizimi mazmunini va samaradorligini ham qamrab oladi. Ta'lim tizimi yoshlar dunyoqarashini rivojlantiruvchi asosiy axborot bazasi bo'lgani uchun ham uning mohiyati ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida extiyotkorlik bilan yondashuvni taqozo qiladi.

Mafkuraviy immunitet ideal xisoblanuvchi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega fenomen hisoblanasa-da, unga erishishga yordam beruvchi metodik vositalar yetarlicha amaliyotda o'zini oqlamayapti. Bunda zamonaviy hermenevtik tafakkur orqali yoshlarda mustahkam dunyoqarashni shakllantirishga e'tibor qaratish shuning uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar tafakkurida hermenevtik tafakkur maktabgacha tarbiya, oila muhiti, ta'lim tizimi davomida ijtimoiy fanlar kontekstida o'rgatib borilishi zarur. Hermenevtik tafakkurga erishilishi bilan insonda axborot asri tahdidlariga va jamiyat munosabatlaridagi yangilanishlarga kirishishda mustaqil va konstruktiv dunyoqarash paydo bo'ladi.

Ijtimoiy muloqotda, axborot olami yoki kundalik hayotda turli ma'lumotlar, fikrlar, dunyoqarashlarni mohiyatiga ko'ra ajrata olish, muloqot va axborot kompetensiyalari, ko'nikmalari shakllanadi. Anglash, anglatish, muhokama qilish bilan bog'liq ijtimoiy muloqotda qo'llaniladigan birlamchi aloqalarda hermenevtikadan foydalaniladi. Bugungi davrda yoshlar raqamli kompetensiyalari, mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga ehtiyoj har qachongidan ham ustuvor darajaga yetdi. Bugungi global dunyoda "Chunki mafkuraviy tahdidlar orqali yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishlar bo'lmoqda." [5. 28-bet.]

Olgan ma'lumotlarini qabul qilishda yoshlar uning bunyodkor yoki vayronkor g'oyalarni

qo‘llab-quvvatlovchi mazmundaligi, o‘zi uchun qay darajada manfaatli, ishonchlilik darajasi, ruxiy-ma‘naviy dunyoqarashida qanday rezonans keltirib chiqarishi kabi muammolar bilan yuzlanar ekan, bunda metodik-ilmiy tayyorgarlik ularning tafakkurida bo‘lishi kerak. Zamonaviy axborot siyosatida virtual hayotni moderatsiya qilish, axborotga yo‘naltirish, zararli axborotlarni cheklashda ko‘proq texnik algoritmlarga tayanib qolinmoqda. Bu ijtimoiy tarmoqlarda kontentni ma‘qullash va tavsiya filtrlari orqali ko‘pchilikka yaxshi axborot materiallari yetib boradi degan yondashuv oqibatida kelib chiqmoqda. Xavfli jihati shundaki bunday tavsiyaviy tizim teskari effekt berishi ham hech gap emas. Odatda ko‘ngilochar, ahamiyatsiz ko‘rinadigan axborotlar jalb etadigan auditoriya ilmiy, zaruriy axborot materiallaridan ko‘ra ko‘pchilik tomonidan iliq kutib olinadi va tarqatiladi.

Tafakkurning bunday axborotlarga moyilligini ilmiy asoslab bergan ilmiy nazariyalardan biri “arzimaslik qonuni” tushunchasini fanga kiritgan N.Parkinson tomonidan izoxlangan. Mark Rayan ta’kidlaydiki: “Parkinsonning qonunida aytilishicha, guruhning biror masalani muhokama qilishga sarflaydigan vaqti uning ahamiyati va murakkabligiga teskari proportsionaldir.” [6] Parkinson odamlar o‘zlariga qiyin tuyilgan ijtimoiy hayotdagi muloqot mavzularidan, axborotlardan qochishga intiladilar. Shu bilan birga oson qabul qilinadigan, yengil-yelpi axborotlarga rag‘bat bildiradilar degan qarashni ilgari surgan.

Ijtimoiy tarmoqlar va axborot ulashuvchi vositalarning boshqa vositalari belgilaydigan hamjamiyat tartib qoidalari ham ana shunday omillar sababli yetarlicha himoya mexanizmlarini bera olmaydi. Fikr manipulyatsiyalarining zararli ta’sirini cheklashda yoshlar ongida axborot tarfakshligi sharoitida to‘g‘ri yondashuv bilan ijtimoiy tafakkurga ta’sir qiluvchi germenevtik vositalar ayni zarurat sharoitida qo‘llanilishi mumkin. Bu borada germenevtik tadqiqotlar axborotlarni talqin qilish, sharxlash va ommalashtirish bo‘yicha me‘zonlari belgilab berishi mumkin.

Shunday ekan, mafkuraviy kurashlardagi ushbu tarixiy-falsafiy jarayonlarni tahlil qilib borgan holda eng muqobil yechimlarni ajratib olish kerak. Bunda insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotini har bir millat yoki davlat misolida ko‘rib chiqmasdan, asosiy qonuniyatlarga e’tibor qaratilgan. Tarixiy rivojlanish tendensiyasi yoshlarning jamiyatdagi o‘rni uzoq davrlar mobaynida asosan ishchi kuchi sifatida baholanganini va aynan axborotlashuvdagi rivojlanish ularning barcha sohalarida ildamlikka chorlaganini ko‘rsatdi. Jamiyatlarning muayyan sohadagi qadriyatlari ma’lum davrda unutilishi ham, avlodlar almashinuvining boshqa bir bosqichida esa, qayta takrorlanishi ham mumkin. Zamonaviy axborot asrida bunday ehtimollar yanada ortishi kuzatiladi. Shuningdek, mafkuraviy an‘analarning tiklanishi avvalgi davrdagi bilan aynan bir xilda qaytarilmasdan yangi avlodda yuqori darajada o‘zlashtirilishi va takrorlanishi mumkin. Yoshlar siyosiy tafakkuridagi qadriyatlarda ham bu kuzatiladi.

Bosqichma-bosqich vorisiylik tamoyili bilan o‘zgarib kelayotgan sivilizatsiyalar, mafkuralar almashinuvi davomida davriy nuqtayi nazardan yoshlardagi shaxsning ijtimoiylashuvi, ularning tafakkuridagi rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy rezonanslarga nimalar turtki bo‘lganini aniqlashga zarurat paydo bo‘ladi. Axborotlashgan jamiyatning nazariy asoslari qay tarzda yoshlar ongida singdirilishi va manipulyatsiya qilinishiga holisona baho berish yoshlar dunyoqarashlari va uning determinant bo‘lgan axborot vositalarining umumiy manzarasini aks ettiradi. Germenevtika olingan natijalar va bilimlarni tarmoqlarga ajratishga yordam beradi.

Xulosa

Talqin qilishda germenevtik tafakkur yot g‘oyalar, submadaniyat ko‘rinishlarining mohiyatida mavjud maqsadlar va rivojlanish tendensiyalarini anglash uchun zarur yo‘l-yo‘riqlarni belgilaydi. Bugun axborot ummonida inson istaganicha axborot olishi mumkin bo‘lsada, qay darajada qaysi axborotga muhtojligini yaxshi anglayvermaydi. O‘z kasbiy salohiyati, kundalik faoliyatiga doir va zaruriy bilimlarni o‘rganishi orqali inson tafakkurida mafkuraviy immunitetni va boshqalar bilan aloqalarini ijobiy rivojlantiruvchi germenevtik idrok shakllanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гадамер, Г.-Г. Истина и метод. — Москва: Прогресс, 1988. — 704 с.
2. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qollanma / Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018. - 84-bet.
3. Sevara Botirova. Muloqot me'zonlarini anglashda hermenevtik-gnoselogik falsafaning o'rni. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2026, [3] ISSN 2181-7324 55-57 betlar. (56-bet)
4. <https://lex.uz/uz/docs/-4320700> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son qarori [Murojaat qilingan sana: 05.03.2026]
5. Madrahimov A., Nurullayev H., Husanova N., Meliyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri. [Matn] : o'quv qo'llanma / - T.: "Ma'naviyat", 2024. - 28-bet.
6. <https://www.namedlaws.com/p/parkinsons-law-of-triviality> [Murojaat qilingan sana: 05.03.2026]